Ma’naviy-ma’rifiy, ilmiy-adabiy jurnal
IF(IMPACT FACTOR)9.573/2025 ISSN 2181-1881

MOTURIDIYLIK

The Maturidiyya - الماتريدية - Матуридизм

Maxsus son /2026

TAHRIR HAY'ATI

Muzaffar KOMILOV – tarix fanlari nomzodi, dotsent

Shayx Nuriddin XOLIQNAZAR – O'zbekiston musulmonlari idorasi raisi, muftiy

Bahrom ABDUHALIMOV – tarix fanlari doktori, professor

Davronbek MAXSUDOV – tarix fanlari doktori, professor

Ahadjon HASANOV – tarix fanlari doktori, professor

Zohidjon ISLOMOV – filologiya fanlari doktori, professor

Shovosil ZIYODOV – tarix fanlari doktori, professor

Uyg'un G'AFUROV – tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori

Jamoliddin KARIMOV – tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori

Ibrohim USMONOV – tarix fanlari nomzodi, dotsent

Ahmad Sa'd DAMANHURIY – islomshunoslik fanlari bo'yicha falsafa doktori

Mahmud Erol QILICH – ilohiyotshunoslik fanlari doktori, professor

Nazir Muhammad AYYAD – ilohiyotshunoslik fanlari bo'yicha falsafa doktori

Rejep TUZJU – ilohiyotshunoslik fanlari doktori, professor

Muhammad Rashid AKPINAR – ilohiyotshunoslik fanlari bo'yicha falsafa doktori

Ashirbek MUMINOV – tarix fanlari doktori, professor

Kamaluddin Nurdin MARJUNI – ilohiyotshunoslik fanlari bo'yicha falsafa doktori, professor

Jasur NADJIMITDINOV – tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

O'zbekiston Respublikasi Din ishlari bo'yicha qo'mitasining 2025-yil 4-noyabrdagi 03-07/7225-sonli xulosasi asosida tayyorlandi.

MUASSIS:
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI VAZIRLAR MAHKAMASI HUZURIDAGI IMOM MOTURIDIY XALQARO ILMIY-TADQIQOT MARKAZI

Bosh muharrir:
Komiljon Shermuxamedov
tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Bosh muharrir o'rinbosari:
Shahzod Islamov
tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori

Sahifalovchi:
Zarifjon Arslonov

Dizayner:
Zarifjon G'ulomov

«**Moturidiylik**» jurnali **O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi**ning 2021-yil 30-dekabrdagi 310/10-son qarori bilan dissertatsiya asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

Jurnal 2021-yil 12-dekabrda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №1139 raqami bilan ro'yxatga olingan.

Tahririyat manzili:
Toshkent shahar, Shayxontohur tumani, Abdulla Qodiriy ko'chasi, 11-uy.
E-mail: info@maturidijournal.org
Web-sahifa: maturidijournal.org
Telefon: (+99855) 515-98-98,

ISSN 2181-1881 E-ISSN 2181-189X

MUNDARIJA

ISLOMSHUNOSLIK

Ikhtiyor ABDURAKHMONOV
Allohning kalom sifati haqidagi aqidaviy qarashlar va ularning talqini 5

Jobir ELOV
Imom Buxoriy ta’limotidagi axloqiy tamoyillarning jamiyat taraqqiyotidagi o‘rni 9

Yahyobek HAYITALIYEV
Radikal g‘oyalarning yoshlar ongiga kirib borish yo‘llari («soxta salafiylik» misolida) 16

Abdullatif ALLOQULOV
Moturidiylikda takvin sifati: ma’nosi va zotiy sifat bilan aloqasi 22

Qudratulloh SIDIQMETOV
Ilk takfirchi firqalarning shakllanishi va ularning xatarlari 27

Botirkhon RUZIYEV
Imom Abu Mansur Moturidiyning ilmiy faoliyati tahlili 32

Abdulaziz YAKHSHILIKOV
Aqoid ilmi shakllanishi va rivojlanish bosqichlari 40

Oishakhon SALIMOVA
Imom Moturidiy va uning izdoshlari ilmiy merosining islom ilmlari rivojidagi o‘rni 47

Aydos YAKUPOV
Imom Abu Mansur Moturidiyning kalom ilmi rivojiga qo‘shgan hissasi 50

Nasrullo TOKHTAYEV
Moturidiylik ta’limotining o‘ziga xos jihatlari 55

ISLOM HUQUQI

Muhammad Khodiy AKHMEDOV
Mazhablarning ahamiyati: dalillar va ilmiy asoslar 59

DINSHUNOSLIK

Bobomurod RUSTAMOV
O‘zbekiston Respublikasining «Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to‘g‘risida»gi Qonuni hamda diniy sohadagi davlat siyosati 63

Abdullaziz ABDUVAKHIDOV
Zamonaviy ta’limda ma’rifatning o‘rni 67

ISSN 2181-1881 E-ISSN 2181-189X

ISLOM TARIXI VA MANBASHUNOSLIK

Tokhir KHATAMOV
Xorijiy fondlardagi tasavvuf ta’limotiga oid manbalarning yurtimizda tuzilgan reyestrlarda tasnif etilishi 72

Ahmadkhon RASHIDOV
O‘rta asrlar islom olamida qiroat ilmining rivojlanishi va uning mashhur namoyandalari 81

Samariddin AKHMEDOV
Umar Jandiyning «al-Iqlid» asari metodologiyasi 89

Nozima IBRAGIMOVA
Abbosiylar davri elchilik munosabatlarining konseptual qoidalari 95

Khalilulloh SAIDAKBAROV
Ibn Kasirning «al-Bidoya va-n-nihoya» asarida foydalangan manbalari 102

Zarifjon GULOMOV
«Kitob at-tavhid» tanqidiy nashrlarida matniy tafovutlar va tahrir tamoyillari 107

ISSN 2181-1881 E-ISSN 2181-189X

MOTURIDIYLIK
https://maturidijournal.org/index.php/moturidiylik
https://doi.org/10.65944/MOTURIDIY/2026-M/11

Muhammad Khodiy AKHMEDOV[a]

[a] *Lecturer*
Imam Termizi Secondary Special Islamic School
3, Shimoliy Darvoza Street, Termez, 190100, Uzbekistan

MAZHABLARNING AHAMIYATI: DALILLAR VA ILMIY ASOSLAR

Annotatsiya. *Ushbu maqolada islom huquqi (fiqh) doirasida mazhablar tushunchasi, ularning shakllanish tarixi, nazariy asoslari va musulmon jamiyati hayotidagi o‘rni ilmiy jihatdan tahlil qilinadi. Mazhablarning vujudga kelishiga ta’sir ko‘rsatgan tarixiy, ijtimoiy va ilmiy omillar, fiqhiy qarashlarning rivojlanish bosqichlari hamda ularning o‘ziga xos xususiyatlari yoritiladi. Mavzu tarixiy va nazariy nuqtayi nazardan o‘rganilib, Qur’oni karim va hadisi shariflar asosida mazhablarning shakllanishi va rivojlanishiga oid dalillar tahlil qilinadi. Tadqiqotda tarixiy, manbashunoslik va tahliliy metodlardan foydalanilib, fiqhiy mazhablarning islom huquqi taraqqiyotidagi o‘rni, ilmiy merosi va amaliy ahamiyatiga alohida e’tibor qaratiladi. Shuningdek, mazhablarning diniy-huquqiy masalalarni hal etishdagi roli, musulmonlar kundalik hayotidagi ahamiyati hamda turli davrlarda shakllangan huquqiy qarashlarning o‘zaro munosabati ko‘rib chiqiladi. Maqolada fiqhiy mazhablarning islom huquqini tizimlashtirish, diniy manbalarni ilmiy asosda sharhlash va huquqiy tafakkurni rivojlantirishdagi hissasi ham ochib beriladi. Tadqiqot natijalari mazhablarning shakllanishi musulmon ummatida fiqhiy tafakkurning rivojlanishi, islom huquqining takomillashuvi hamda zamonaviy diniy-huquqiy masalalarga ilmiy asoslangan yechimlar topishda muhim ahamiyat kasb etishini ko‘rsatadi.*

Kalit so‘zlar: *mazhab, fiqh, islom huquqi, taqlid, ijtihod, Qur’on, sunnat, ijtimoiy muvozanat, islomshunoslik.*

THE IMPORTANCE OF MADHHABS: EVIDENCES AND SCHOLARLY FOUNDATIONS

Abstract. *This article provides a scholarly analysis of the concept of legal schools (madhhabs) within Islamic jurisprudence (fiqh), their historical formation, theoretical foundations, and role in Muslim society. It examines the historical, social, and scholarly factors that contributed to the emergence of the madhhabs, the stages in the development of Islamic legal thought, and their distinctive characteristics. The topic is explored from historical and theoretical perspectives, drawing on evidence from the Holy Qur’an and the Hadith to examine the formation and development of Islamic legal schools. The study employs historical, source-based, and analytical methods, with particular attention to the role, scholarly legacy, and practical significance of the madhhabs in the development of Islamic law. Furthermore, it considers their role in resolving religious and legal issues, their importance in the daily lives of Muslims, and the relationship between legal perspectives that emerged in different historical periods. The article also highlights the contribution of Islamic legal schools to the systematization of Islamic law, the scholarly interpretation of religious sources, and the development of legal thought. The findings demonstrate that the formation of the madhhabs has played a significant role in the advancement of Islamic jurisprudence, the refinement of Islamic law, and the development of scholarly solutions to contemporary religious and legal issues.*

Keywords: *madhhab, fiqh, Islamic law, taqlid, ijtihad, Qur’an, Sunnah, social balance, Islamic studies.*

«Mazhab» (arab. mazhab – «yo‘nalish», «yo‘l», «oqim») atamasi shariat huquqida muayyan fiqhiy maktab, huquqiy yo‘nalish yoki ijtihodiy uslubni anglatadi. Hijriy II–III (milodiy VIII–IX) asrlarda islom huquqi sohasida turli uslub va yondashuvlarga ega bo‘lgan bir qator fiqhiy mazhablar shakllandi. Bugungi kunda ahli sunna val-jamoa doirasida to‘rtta asosiy mazhab – hanafiy, molikiy, shofe’iy va hanbaliy mazhablari, shia yo‘nalishida esa ja’fariy mazhabi keng e’tirof etilgan. Ushbu mazhablar asosan fiqhiy masalalarning tafsilotlarida o‘zaro farq qiladi, e’tiqod va shariatning asosiy manbalari bo‘lgan Qur’on va sunnatga tayanishda esa mushtarakdir[1].

Zamonaviy davrda ayrimlar mazhablarga amal qilish zaruratini inkor etib, Qur’on va sunnatni bevosita o‘rganish kifoya qiladi, degan qarashni ilgari surmoqdalar. Bunday yondashuv muayyan sharoitlarda fiqhiy masalalarda turli ixtiloflar va ijtimoiy kelishmovchiliklarni keltirib chiqarishi mumkin. Shu munosabat bilan mazkur tadqiqotning maqsadi mazhablarning tarixiy shakllanishi, nazariy asoslari va amaliy ahamiyatini yoritish, shuningdek, ularni rad etuvchi qarashlarni ilmiy dalillar asosida tahlil qilishdan iborat. Tadqiqotda tarixiy, qiyosiy va tahliliy metodlar qo‘llanilib, islomiy manbalar hamda zamonaviy ilmiy adabiyotlar asosida mazhablarning vujudga kelish sabablari, ularning ahamiyati va fiqhiy ixtiloflarning o‘rni tahlil qilindi.

Mazhablarning paydo bo‘lishi musulmon ummatining hududiy kengayishi va madaniy xilma-xilligi bilan bog‘liq bo‘ldi. Ilk islom asrlarida musulmon davlatlarida turli fiqhiy yo‘nalishlar shakllandi. Bu esa fiqhiy masalalarda turli qarashlarning paydo bo‘lishiga olib keldi. Masalan, bir masalani hal qilishda ulamolar Qur’on oyatlari va hadislarni turlicha uslubda talqin qilganlari sababli, bir-biridan farq qiluvchi hukmlar vujudga keldi. Natijada to‘rt sunniy imom – Abu Hanifa, Molik ibn Anas, Muhammad ibn Idris Shofeiy va Ahmad ibn Hanbal ta’limotlari asosida alohida huquq maktablari, ya’ni mazhablar tizimi yuzaga keldi.

Ma’lumki, ahli sunna val jamoa doirasida to‘rtta fiqhiy mazhab mavjud bo‘lib, ular hanafiy, molikiy, shofeiy va hanbaliy mazhablaridir. Islom tarixiga nazar tashlansa, bu mazhablar shakllanishidan avval ham turli fiqhiy yo‘nalishlar mavjud bo‘lgan. Biroq ular muayyan shaxs nomi bilan emas, balki shahar yoki mintaqalar nomi bilan atalgan. Masalan, madinaliklar mazhabi, makkaliklar mazhabi va hokazo.

[1] Abu Zahra, Muhammad. Tarix al-mazohib al-islomiya. – Qohira, Dor al-fikr al-arabiy, 1963. – B. 126.

Imom Molik rahmatullohi alayh o‘zlarining mashhur «al-Muvatto» asarining yozilishi haqida shunday rivoyat qiladilar: «Xalifa Abu Ja’far Mansur bilan hajda uchrashib qoldim. U menga: «Men bilan sizdan boshqa olim qolmadi. Men siyosat bilan mashg‘ulman. Siz odamlarga sunnat va fiqhni bayon qiluvchi bir kitob yozing. Faqat unda Ibn Abbosning ba’zi masalalardagi ruxsatlarini, Ibn Umarning ba’zi masalalardagi qattiqqo‘lligini va Ibn Mas’udning ba’zi nodir so‘zlarini kiritmang, uni ommabop qilib yozing», dedi».

Kitob ta’lif qilinib, Abu Ja’far Mansurga taqdim etilganda, u: «Men bu kitobni Ka’baga osib qo‘ymoqchiman va butun islom olamiga tarqatib, odamlarni faqat shu kitobga amal qilishga majbur qilmoqchiman», dedi. Shunda Imom Molik: «Yo‘q, bunday qilmang. Chunki sahobalar yer yuzi bo‘ylab tarqalib ketganlar. Ular men kitobga kiritgan Hijoz ahlining hadislaridan tashqari boshqa hadislarni ham rivoyat qilganlar. Odamlar o‘sha hadislarni ham qabul qilganlar. Shuning uchun ularni o‘z hollariga qo‘ying», deb javob berdilar.

Barcha hadis to‘plamlarida keltirilgan ushbu mashhur voqea asrlar davomida faqihlarni yangi ilmiy izlanishlarga undab kelgan. Shuningdek, u Qur’oni karim oyatlari va hadislar bilan bir qatorda fiqh ilmida muhim dalil sifatida e’tirof etilgan. Keyinchalik sahobalar va tobeinlar fatvolari jamlanib, tahlil qilinishi natijasida yangi mazhablar shakllandi va ular mazhab asoschilarining nomlari bilan atala boshladi. Xususan, Kufada hanafiy, Madinada molikiy, Misrda shofeiy va Bag‘dodda hanbaliy mazhablari rivoj topdi. Tarixiy nuqtai nazardan qaralsa, bu to‘rt mazhab o‘zaro bog‘liq bo‘lib, mazhab sohiblari bir-birlariga bevosita yoki bilvosita ustoz yoki shogird bo‘lganlar. Masalan, Abu Hanifa Imom Molik bilan uchrashgan, Imom Molik Imom Shofeiyga ustozlik qilgan, Imom Shofeiy esa Abu Hanifaning shogirdi Muhammad ibn Hasan bilan munozaralar olib borgan. Shuningdek, Imom Shofeiy Ahmad ibn Hanbalga ustozlik qilgan. Shunga qaramay, har bir mujtahid mazhab shakllantirishda o‘ziga xos ilmiy uslubga ega bo‘lgan.

Mazhablar o‘z tarixiy taraqqiyoti davomida dinning yaxlitligi, musulmonlarning hamjihatligi, o‘zaro ahilligi va birligini ta’minlashda muhim omil bo‘lib xizmat qildi. Ular musulmonlar orasidagi firqachilikka qarshi turib, diniy e’tiqod asosida bo‘linish g‘oyasini qabul qilmaganlar. Turli oqim va firqalar islom dinining yaxlitligini buzishga uringan bo‘lsalar-da, bunga erisha olmaganlar. Buning asosida

ISSN 2181-1881 E-ISSN 2181-189X

ahli sunna ulamolari keltirgan dalil va asoslarning mustahkamligi muhim o‘rin tutgan. Shu bois bu haqiqatlarni musulmonlar ommasiga tushuntirish bugungi kunda ham muhim ahamiyatga ega.

Mazhablar Qur’oni karim va Rasulullоh sollallohu alayhi vasallam sunnatlari asosida ijtihod qilib, sahobiy va tobeinlar fatvolariga muvofiq ishlab chiqilgan to‘g‘ri yo‘l hisoblanadi. Alloh taoloning insoniyatga ikki dunyo saodatini ko‘rsatuvchi mukammal dini islom ekanini anglashda mazhablar muhim ahamiyat kasb etadi. Ular birlik, birdamlik va birodarlik ramzi sifatida namoyon bo‘ladi.

Har bir mazhabning asosi Qur’on va hadisdir. Biroq Qur’on oyatlari va Nabiy sollallohu alayhi vasallam sunnatini anglash va talqin qilish muayyan ilmiy salohiyatni talab qiladi. Chunki har bir musulmon shariat hukmlarini mustaqil ravishda chiqara olmaydi, balki bilimdon ulamolarning xulosalariga tayanadi. Alloh taolo Qur’oni karimda: «Bilmasangiz, zikr ahlidan so‘ranglar», deb marhamat qiladi. Bu oyatning mazmuni din masalalarida bilimli ulamolarga murojaat qilish lozimligini anglatadi. Usul al-fiqhni chuqur o‘zlashtirgan ulamolar Qur’on va sunnatdagi murakkab masalalarni to‘g‘ri talqin qiladilar. Ularga ergashish orqali oddiy musulmon Qur’on va sunnatga sodiq qoladi hamda xatoga yo‘l qo‘yish ehtimoli kamayadi[2].

Qur’oni karimda yana shunday marhamat qilinadi: «Ey iymon keltirganlar! Allohga itoat qilinglar, Payg‘ambarga va o‘zlaringizdan bo‘lgan ishboshilarga itoat qilinglar. Agar biror narsa haqida tortishib qolsangiz, agar Allohga va oxirat kuniga iymon keltirgan bo‘lsangiz, uni Allohga va Payg‘ambarga qaytaring. Ana shunday qilish yaxshiroq va oqibati ham go‘zaldir» *(Niso surasi, 59-oyat)*. Tafsir ulamolari ushbu oyatdagi «ulul-amr»ni ulamolar deb tafsir qilganlar[3]. Bu esa mazhab imomlariga va ular belgilagan ilmiy usullarga amal qilishning ahamiyatini ko‘rsatadi.

Shuningdek, mazhablar mohiyatan ixtilof emas, balki ijtihodga asoslangan turli ilmiy yondashuvlardir. Masalan, bir musulmon Imom Molikka, boshqasi Imom Shofeiyga, yana biri Imom Ahmad ibn Hanbalga ergashsa ham, ularning barchasi Qur’on va sunnat asosida amal qiladi. Sahobalar davrida ham ba’zilari faqih bo‘lgan, boshqalari esa ularning fatvolariga amal qilgan. Ana shu amaliyot keyinchalik sunniy to‘rt mazhabning shakllanishiga asos bo‘lgan. Olimlar ta’kidlaganidek, muayyan mazhabga amal qilgan kishi aslida Qur’on va sunnatga ergashgan bo‘ladi, chunki mutaxassis olimga murojaat qilish shariat talablariga muvofiqdir.

Mazhablarning ijtimoiy-falsafiy ahamiyati ham kattadir. Turli hududlarda yashovchi musulmonlar turli mazhablarga amal qilib, ijtihod asosida fiqhiy masalalarga yechim topganlar. Bu farqlar ziddiyat emas, balki rahmat sifatida baholanadi. Shu ma’noda rivoyat qilinadi: «Sahobiylarim yulduzlar kabidir, ularning qaysi biriga ergashsangiz ham hidoyat topasiz». Shuningdek, «Mujtahidlar ixtilofi ummat uchun rahmatdir», degan mashhur naql ham mazhablar o‘rtasidagi ilmiy ixtilofning ijobiy mohiyatini ifoda etadi.

Islom ulamolari, avvalo, maslahat va ilm ahliga murojaat qilishni tavsiya etganlar. Ularning fikricha, mazhabga oid masalalarda mujtahid imomlarning ijtihodiga amal qilish sunnatga muvofiqdir. O‘zini barcha ilmlarni to‘liq egallamaganini bilgan kishi mustaqil hukm chiqarmasdan, ishonchli ulamolarga murojaat qiladi. To‘rt mazhab amaliyoti islom huquqiy merosining muhim qismi hisoblanadi. Ular jamiyatda tartib-intizomni ta’minlash va diniy qadriyatlarni asrab-avaylashda muhim o‘rin tutgan. Ayniqsa, hanafiy mazhabi inson huquqlariga e’tibori va turli holatlarga moslashuvchan yondashuvi bilan ajralib turadi. Shuningdek, mazhablar yetuk ulamolarning ilmiy merosini keyingi avlodlarga yetkazishda muhim vosita bo‘lib xizmat qilgan. Bugungi kunda ham yirik islomiy ta’lim muassasalarida to‘rt mazhab bo‘yicha alohida darslar o‘qitilishi buning yaqqol dalilidir. Muhokamalardan ko‘rinadiki, muammo asosan mazhab tanqidchilari tomonidan noto‘g‘ri talqin qilinmoqda. Aslida, taqlid va ijtihod islom tarixi davomida ilmiy bahs mavzusi bo‘lib kelgan. Biroq mujtahidlik darajasiga yetmagan kishi uchun yetuk mujtahid imomlarga ergashish eng to‘g‘ri yo‘l hisoblanadi. Imom Bayhaqiy rivoyat qilgan «Ummatimning ixtilofi rahmatdir», mazmunidagi rivoyatlar ham fiqhiy ixtiloflar ummat taraqqiyotiga xizmat qilishi mumkinligini anglatadi. Shu bilan birga, Qur’on va hadislarda muayyan bir imomga ergashish haqida to‘g‘ridan-to‘g‘ri ko‘rsatma bo‘lmasa-da, ilm ahli va «ulul-amr»ga itoat qilish haqidagi oyatlar mavjud. Shu bois musulmon ummati uchun asosiy vazifa Qur’on va sunnatni mustahkam saqlash hamda mazhablarning boy ilmiy merosidan unumli foydalanishdan iborat.

Nazariy jihatlar. Mazhablar islom tarixida erta shakllangan ilmiy-huquqiy maktablar bo‘lib, ularning

[2] Kamoliy Muhammad Xashim. Principles of Islamic Jurisprudence. Cambridge, Cambridge University Press, 1991. – B. 76.

[3] Muhammad Taqiy Usmoniy. The Legal Status of Following a Madhab. Karachi, Darul-Isha’at, 1959. – B. 152.

ISSN 2181-1881 E-ISSN 2181-189X

vujudga kelishida mujtahid ulamolarning usulul-fiqh sohasidagi ilmiy yondashuvlari hal qiluvchi ahamiyat kasb etgan. Mazhablarning shakllanishi ulamolarning Qur'on va sunnatni ilmiy asosda talqin qilishlari bilan bog'liqdir. Alloh taolo ham: «Bilmasangiz, zikr ahlidan so'ranglar» *(Anbiyo surasi, 7-oyat)*, deb marhamat qilgan. Shu jihatdan, mazhablar Qur'on va sunnat asosida amal qilish uchun mustahkam ilmiy asos vazifasini bajaradi.

Fikriy jihatlar. Mazhablar o'rtasidagi farqlar asosan fiqhiy masalalarning ayrim tafsilotlarida bo'lib, ularning barchasi Qur'on va sunnatga tayanadi. Turli ijtihodlar musulmonlarga shariat ahkomlarini anglashni yengillashtiradi va «ixtilof rahmat» tamoyili asosida baholanadi. Bu esa turli hayotiy masalalarda shaxsiy taxmin bilan emas, balki ishonchli olimlarning ilmiy xulosalariga tayanish maqsadga muvofiq ekanini ko'rsatadi.

Ijtimoiy ahamiyati. Mazhablar asrlar davomida millionlab musulmonlarning diniy hayotini tartibga solib, ibodat va muomalalarda yagona tizimni ta'minlab kelgan. Ular jamiyatda adolat, barqarorlik va diniy bag'rikenglikni mustahkamlashga xizmat qilgan. Bugungi kunda ham Markaziy Osiyo, Turkiya, Hindiston va Shimoliy Afrika kabi hududlarda mazhablar asosida diniy-huquqiy an'analar davom etmoqda. Bu esa jamiyatda huquqiy barqarorlikni ta'minlash va musulmonlar o'rtasidagi ixtiloflarni kamaytirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Tanqidga javob. Zamonaviy «mazhabsiz islom» g'oyalari yetarli ilmiy asosga ega emas. Qur'oni karimda Alloh taolo: «Allohga, Payg'ambarga va o'zlaringizdan bo'lgan ishboshilarga itoat qilinglar» *(Niso surasi, 59-oyat)*, shuningdek, «Bilmasangiz, zikr ahlidan so'ranglar» *(Anbiyo surasi, 7-oyat)*, deb marhamat qiladi. Ushbu oyatlar ilm ahliga murojaat qilish va ularning ilmiy xulosalariga tayanish zarurligini anglatadi. Shu bilan birga, mujtahid imomlar Qur'on va sunnatga tayangan holda, belgilangan usullar asosida hukm chiqarganlar. Shu bois, mujtahidlik darajasiga yetmagan kishi uchun, avvalo, o'zi amal qilayotgan mazhab ulamolarining ilmiy xulosalariga ergashish to'g'ri va maqbul yo'l hisoblanadi.

Tahlillar natijasi shuni ko'rsatadiki, mazhablar islom tarixida ilmiy asoslangan fiqhiy maktablar sifatida shakllangan. Ular shariat masalalarini chuqur tahlil qilish va hayotiy holatlarga mos ravishda hal etish orqali jamiyat va diniy hayot barqarorligini ta'minlashga xizmat qilgan. Qur'oni karim va sunnatda ilm ahliga murojaat qilishga da'vat etilgani, shuningdek, sahobalar va keyingi mujtahid ulamolar amaliyoti mazhablarning ilmiy asosga ega ekanini tasdiqlaydi. Shu bois, bugungi kunda ilgari surilayotgan «mazhabsizlik» g'oyalarini ilmiy jihatdan baholash va ularga asosli munosabat bildirish muhim ahamiyat kasb etadi. Har bir musulmon o'z diniy amallarida ishonchli ilmiy manbalarga va mujtahid ulamolarning merosiga tayanishi lozim. Mazhablar asrlar davomida musulmonlar hayotida diniy-huquqiy barqarorlikni ta'minlab kelgan bo'lib, ularning ilmiy va amaliy ahamiyati bugungi kunda ham saqlanib qolmoqda.

MANBA VA ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Abu Zahra Muhammad. Tarix al-mazohib al-islomiya. – Qohira: Dor al-fikr al-arabiy, 1963.
2. Kamoli Muhammad Xashim. Principles of Islamic Jurisprudence. – Cambridge, Cambridge University Press, 1991.
3. Muhammad Taqiy Usmoniy. The Legal Status of Following a Madhab. – Karachi, Darul-Isha'at, 1959.
4. Hallaq, V. The Origins and Evolution of Islamic Law. – Cambridge, Cambridge University Press, 2005.

REFERENCES

1. Abu Zahra Muhammad. Tarix al-mazohib al-islomiya. – Qohira: Dor al-fikr al-arabiy, 1963.
2. Kamoli Muhammad Xashim. Principles of Islamic Jurisprudence. – Cambridge, Cambridge University Press, 1991.
3. Muhammad Taqiy Usmoniy. The Legal Status of Following a Madhab. – Karachi, Darul-Isha'at, 1959.
4. Hallaq, V. The Origins and Evolution of Islamic Law. – Cambridge, Cambridge University Press, 2005.

ISSN 2181-1881 E-ISSN 2181-189X

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI VAZIRLAR MAHKAMASI HUZURIDAGI IMOM MOTURIDIY XALQARO ILMIY-TADQIQOT MARKAZINING «MOTURIDIYLIK» JURNALI

Mazkur nashr oliy o‘quv yurtlari va ilmiy-tadqiqot muassasalarining professor-o‘qituvchilari, doktorantlari, mustaqil tadqiqotchilari, magistrantlari, talabalari va keng kitobxonlar ommasiga mo‘ljallangan.

Tahririyat fikri muallif nuqtai nazari bilan bir xil bo‘lmasligi mumkin. Jurnaldan ko‘chirma olinganda manba qayd etilishi shart.

MOTURIDIYLIK

The Maturidiyya - الماتريدية - Матуридизм

Maxsus son/2026

Bosh muharrir: **K.Shermuxamedov**
Muharrir: **A.Tajiyev**
Nashr uchun mas’ul: **Z.Arslonov**
Chet tillaridagi matnlar muharriri: **O.Sotvoldiyev**
Dizayner-sahifalovchi: **Z.G‘ulomov**

Nashriyotning lisenziya raqami AI № 0011. 06.05.2019-yil.
Bosishga 12.10.2026-yil ruxsat etildi. Bichimi 60×84 $^{1}/_{8}$.
Rizograf usulda bosildi. Shartli bosma tabog‘i 10,2.
Nashr tabog‘i 10,4. Buyurtma № 23/1.
Bahosi shartnoma asosida.

«Standard Poligraf Service»
MCHJ qo‘shma korxonasi bosmaxonasida chop etildi.
100152, Toshkent shahri, Uchtepa tumani, Foziltepa ko‘chasi, 12B.